TALABALARNING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDA HADIS ILMINING AHAMIYATINI O‘RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna - Zarmed universtiteti Boshlang‘ich ta’lim pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail fayzullayevagulnoza10@gmail.com

Hadis manbalarini ilmiy tahlil qilish ham islomshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan bo‘lib, soha bo‘yicha chuqur ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyati mavjud. Mana shu maqsadda Samarqandda hadis ilmiy maktabining ochilishi soha rivojiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, hadisshunoslik manbalari, hadis to‘plamlaridagi matnlarni tahlil qilish, hadis ma’nolarini to‘g‘ri talqin qilish hozirgi kunda dolzarblik kasb etmoqda. Mazkur sohada «Abdulloh Subazmuniyning «Kashfu-l-osor» asari hadis ilmiga oid manba», «Abu Hafs Nasafiyning «Kitobu-l-qand fi ma’rifat ulamo Samarqand» asari – Samarqandda hadis ilmi tarixi bo‘yicha muhim manba», «Hakim Termiziyning «Navodiru-l-usul» asari hadis va tasavvuf ilmiga oid muhim manba», «Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o‘rni (Buxoriy, Muslim, Termiziy)», «Imom Dorimiyning hadis ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi», «Abdulhamid Keshiy ilmiy merosining VIII-IX asrlar Movarounnahr hadis ilmi rivojidagi o‘rni», «Imom Buxoriyning «at-Tarix al-kabir» asari hadis ilmiga oid muhim manba», «Hadislarning diniy aqidaparastlikka qarshi mohiyati» mavzularidagi ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shuningdek, akademiyada amalga oshirilayotgan Imom Buxoriy «Al-Jome’ as-sahih» asaridagi axloq-odobga bag‘ishlangan hadislarning talqiniga bag‘ishlangan grant loyihasi ham bu boradagi muhim ilmiy tadqiqotlardan sanaladi[10].

Asqar Zunnunovning Pedagogika tarixi nomli oliy o‘quv yurtlari uchun darsligining Markaziy Osiyoda VIII-XIII asrlarda ijtimoiy hayot, madaniyat, ta’lim-tarbiya bobida, Islomda ta’limtarbiya; Imom al-Buxoriy; Iso at-Termiziy; Abu Nasr Forobiy; Abu Rayhon Beruniy; Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Umar az-Zamaxshariy; Mahmud Qoshg‘ariy; Ahmad Yassaviy hayoti, Xoja Bahouddin Naqshband shaxsi va ilmiy merosiga to‘xtalib o‘tilgan[11].

Bugungi kunga kelib jamiyatimiz ma’naviy jihatdan uyg‘un holda rivojlana boshladi va ayni paytda ta’lim tizimida yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini qanday qilib samarali tashkil etish mumkinligi masalasi muammo sifatida namoyon bo‘ldi. Buning uchun, avvalo, «yuksak ma’naviyatli shaxs» deganda nimani

[10] https://moturidiy.uz/oz/news/1528
[11] Didaktik asarlarda madaniyat, maktab va pedagogik qarashlarni o‘rganish tizimi (XII asr oxiri XIV asrning birinchi yarmigacha Movarounnahr va Xuroson) [Matn] : monografiya/ Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna – Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, -2022. – 320 b.

tushunamiz, ma'naviyat, axloq tushunchalarini aniqlab olish lozim edi. Ma'naviyat o'zi nima? Axloq deganda nima e'tiborga olinadi? Bu borada berilgan qator ta'riflarga murojaat qilamiz: Ma'naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat shaxslarda tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga uzluksiz, muttassil g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy tushunchalarni o'qish, o'rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi. «Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlari mezonidir... » Bunday ezgu maqsadlarga esa, faqat yuksak ma'naviyat, uzluksiz ma'naviy tarbiya orqaligina erishish mumkin.

Ma'naviyat insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, Vatan tuyg'usi, bu hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo'lib singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o'ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne'mat va go'zalliklaridan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, uni yanada kuchaytiradi.

Jahon xalqlari tajribasi, ularning bosib o'tgan murakkab rivojlanish yo'llari, bu boradagi saboq va xulosalar shundan dalolat beradiki, qaerda davlat va jamiyat taraqqiy topsa, xalqning tinch-osoyishta hayot kechirishi, o'z oldiga ezgu va buyuk maqsadlar qo'yib yashashi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, o'sha yerda erkin fikrlash muhiti va shu asosda ma'naviy yuksalish uchun yangi imkoniyatlar tug'iladi.

Umuman olganda, insoniyat tarixi ma'naviyat - insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo'lmasligini yaqqol tasdiqlaydi.

O'ylaymanki, yer yuzida qancha inson, qancha taqdir bo'lsa, har birining o'z ma'naviy olami bor. Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak. Shuning uchun ham o'zligini, insoniy qadr-qimmatini anglab yetgan har qanday odam bu haqda o'ylamasdan yashashini tasavvur qilish qiyin[12]. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta'minlaydigan qadimiy va abadiy qadriyatlardandir. Uzluksiz ma'naviy tarbiya shaxsning shakllanishi, kamol topishi va o'z hayot pozitsiyasini aniq tanlashiga katta yordam beradi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya muayyan shaxsning ma'naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didini o'stirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. «Axloq» ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, uning mohiyati shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush

[12] https://e-adabiyot.uz/maqola/183

tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Ilm sohiblari ta'lim-tarbiya sohasiga oid buyuk asarlar yaratgan, har bir asar ta'limiy-axloqiy sanalib, ularda pedagogik fikrlar ilgari surilgan. Jumladan, tarbiya haqidagi fikrlari chuqur, mantiqiy va asosli bayon etilgan. Asrlar osha bu fikrlar o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi ham ta'lim, ham ilmiy dargoh sifatida islomshunoslik sohasi rivojida sezilarli o'rin egallab kelmoqda. Jumladan bu ilmiy dargohda olib borilgan ilmiy izlanishlarning kattagina qismini ham Qur'oni karim va uning tafsirlariga bag'ishlangan tadqiqotlar tashkil etadi. Ular jumlasiga «Movarounnahr hanafiy mazhabi tafsirlarining qiyosiy tahlili (XIII-XV asrlar)», «Abu Bakr Jassos «Ahkom al-Qur'on» tafsirining hanafiy mazhabi rivojidagi ahamiyati», «Abu-l-Barakot an-Nasafiyning tafsir ilmida tutgan o'rni», «Abu-l-Lays as-Samarqandiyning Movarounnahr tafsirshunosligida tutgan o'rni», «Abu Hafs Nasafiy «Taysir fi-t-tafsir» asarining manbashunoslik tadqiqi» mavzularidagi tadqiqotlarni kiritish mumkin[13]. Bugungi kunda o'ziga xos sharqona uslubda barpo etilgan ushbu salobatli majmua inshoati Islom olamining eng tabarruk qadamjolaridan biri sifatida yuksak qadrlanib, dunyoning turli burchaklaridan tinimsiz kelayotgan minglab ziyoratchilar bilan gavjum. So'nggi yillarda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tomonidan buyuk muhaddisning hayoti va ilmiy ma'naviy merosi haqida juda ko'plab kitoblar, risolalar, maqolalar nashr etildi. Mazkur markaz tomonidan muntazam ravishda chop etilayotgan «Imom Buxoriy saboqlari» nomli jurnalda ham buyuk muhaddisning hayoti yo'llari va uning asarlariga bag'ishlangan ko'plab maqolalar chop etilmoqda. Ayni paytda buyuk muhaddislar al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj va at-Termiziyning hayoti va asarlariga bag'ishlanib, hozirgi zamon arab olimlari tomonidan so'nggi yillarda nashr etilgan ko'plab asarlardan ham mazkur tadqiqotda keng foydalanildi. Shular jumlasidan eng avvalo, quyidagilarni alohida ko'rsatish mumkin: Alloma ash-shayx Abdussalom al-Muborakfuriyning «Siyrat al-Imom al-Buxoriy», Doktor Nuriddin Itirning «Al-Imom at-Termiziy val-muvozanat bayna Jomeyhi va bayn as-Sahihayn», olim Mahmud al-Foxuriyning «Al-Imom Muslim ibn al-Hajjoj» nomli tadqiqotlarini va shuningdek, arab olimlarining Al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj, at-Termiziyning hayoti va ijodiga bag'ishlab, yaratilgan qator tadqiqotlar va risolalarini ham aytib o'tish kerak. Ushbu asarlar ro'yxati tadqiqotning biografiya qismida to'liq keltiriladi. Ushbu asarlar buyuk muhaddislar al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj va at-Termiziyning hayoti va asarlariga bag'ishlanib yaratilgan ko'pdan-ko'p yozma manbalarni qiyosiy o'rganish asosida vujudga kelgan. Shunga binoan aytish mumkinki, bu tarzdagi ilmiy tadqiqot nafaqat mamlakatimiz, balki jahon sharqshunosligida ham muayyan ahamiyatga ega. Unda ikki buyuk muhaddisning

[13] https://moturidiy.uz/oz/news/1528

ibratlarga to‘liq hayot yo‘llari yozma manbalarga tayangan holda, tadrijiy o‘rganilib, mufassal bayon qilindi. Buyuk muhaddislarning ilmiy-ma’naviy merosi, ayniqsa, ularning asosiy asarlari imkon qadar kompleks tadqiq etilib, ularning har biriga xos qimmatli jihatlari alohida ko‘rsatilgan. Al-Buxoriy, Muslim va at-Termiziyning shoh asarlari sharq xalqlari ijtimoiy-ma’naviy tafakkurining noyob durdonalari ekanligi alohida qayd etilib, ikki buyuk muhaddisning hayoti va ilmiy faoliyatiga daxldor qator manba va adabiyotlar (ayniqsa, arab tilida) ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi. Hadis ilmining tarixiga doir maxsus bobda keltirilgan ma’lumotlar hadisshunosligimizda ma’lum darajada ahamiyatga ega[14].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон халқаро ислом академияси Ўзбекистон мусулмонлари идораси Имом Термизий халқаро илмий тадқиқот маркази Убайдулла Уватов Мовароуннаҳр ва Хуросон олимларининг ҳадис илми ривожида тутган ўрни (ал-бухорий, муслим, ат-термизий) Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа бирлашмаси Тошкент- 2020

2. Didaktik asarlarda madaniyat, maktab va pedagogik qarashlarni o‘rganish tizimi (XII asr oxiri XIV asrning birinchi yarmigacha Movarounnahr va Xuroson) [Matn] : monografiya/ Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna – Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, -2022. – 320 b.

3. Ал-Бухорий Имом. Эр ва аèл бурчи: сайланма ҳадислар: Оила. Никоҳ. Аèл. Фарзанд. Мерос.–Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. – 420 б

4. Ал-Бухорий ҳақида замондошларининг хотиралари. Шамсиддин Бобоҳоновнинг Имом Исмоил ал-Áуҳорийнинг ―Ал-адаб ал-муфрад(адаб дурдоналари) китоби таржимасидан олинди. – Тошкент, Ўзбекистон, 1990.608 б.

5. Ал-Бухорий Имом. Илму маърифат нури: Сайланма ҳадислар: Илм. Ватан. Инсон. Маърифат. Матонат. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 98. - 300

[14]Ўзбекистон халқаро ислом академияси Ўзбекистон мусулмонлари идораси Имом Термизий халқаро илмий тадқиқот маркази Убайдулла Уватов Мовароуннаҳр ва Хуросон олимларининг ҳадис илми ривожида тутган ўрни (ал-бухорий, муслим, ат-термизий) Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа бирлашмаси Тошкент- 2020